

FUQAROLARNING IJTIMOY-HUQUQLARI KONSITUTSIYA DARAJASIDA TAMINLANISH ASOSLARI

Boboyev Faxriddin Bekzod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Ommaviy huquq fakulteti 1 -bosqich talabasi
+998770294202

faxriddinbabayev0@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10073917>

Annotatsiya: Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari qanchalik darajada taminlanganligi bugungi kunga qadar yozilgan bir necha o'nlab darsliklardan bilib olishingiz mumkin, bularga yana qo'shimcha tarzda hozirgi rivojlangan texnologiyalar yordamida dunyoning turli mintaqalarida joylashgan aholining, shu qatorda ushbu davlatlarga sayyohlik, mehnat, ta'lim, bilim olish va yana bir nechta sabablarga ko'ra bu davlatlarda bo'lib turgan insonlarning huquqlaridan foydalanishlariga qanday sharoitlar yaratib berilayotganligi hamda ularning bu huquqlaridan foydalanishida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan qanday yo'sinda qutilish mumkinligi to'g'risida malumotlarni bilib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: mehnat huquqi, adolatli sharoitlarda mahnat qilish huquqi, ishsizlikdan himoyalash huquqi, bilim olish huquqi.

Kirish: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bobi "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb atalib, uning alohida moddalarida belgilangan qoidalar, fuqarolarning turmush tarsi normal bo'lishini ko'zda tutadi. O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar doirasi, qo'llanish tarsi hech qanday demokratik davlatlardan kam emas va belgilangan qoidalar xalqaro hujjat normalariga va ularda belgilangan talablarga mosdir. O'zbekiston fuqarolari uchun belgilangan ayrim iqtisodiy huquqlar, O'zbekistonning demokratik yo'ldan borayotganligi, jahon tajribasiga tayanish, bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurish maqsadining haqiqiy isbotini ko'rsatadi.

Konstitutsiyaviy normalarning qat'iy amal qilyotganligi tufayli mamlakatimizda kuchli, raqobatdosh, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tarkib topdi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda ushbu sohaning yalpi ichki mahsulotga qo'shayotgan hissasi 54 foizdan ortib borayotir, ichki va tashqi bozorda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalar barpo etilib, yangi ish o'rinlari ochilmoqda, aholi daromadlari oshmoqda. Shu qatorda bir nechta xorijiy mamlakatlar misolida taminlanganligini ko'rishimiz. Misol uchun Ozarbayon konstitutsiyasining 36-moddasi "fuqarolarning erkin ishlash huquqi", Ispaniya Konstitutsiyasining 45-moddasi 1 qismi, atrof tabiiy muhitdan foydalanish huquqi" (xususan konstitutsiyamizning 55-moddasida yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar ummumilliy boylik ekanligi va ulardan oqilona foydalanish zarurligi hamda ular davlat muhofazasidaligi to'g'risida aniq belgilangan qonun-qoidalarni ko'rishimiz mumkin), Bolgariya Konstitutsiyasining 48-moddasida "fuqarolar qonunda belgilangan tartibda va sharoitda dam olish va ta'tilga chiqish huquqi", (malumot AQShda bir yillik ta'til 23 kun, Germaniyadagi ishchilarning uchdan ikki qismi bayramlarni ham hisobga olganda, 36 kun dam olar ekanlar), Malta Respublikasi konstitutsiyasida esa 14-modda alohida ayol ishchilari huquqlari 15-moddasi mehnatga haq to'lashning minimal miqdori, 11-moddasi ta'lim olish huquqi, 19-moddasi erkin bozor iqtisodiyoti, Ozarbayon Respublikasi 12, 22, 29-moddalari mulkka egalik qilish huquqi to'g'

risidagi, 50-moddasi axborot erkinligi hamda yana bir necha jihatlarini yoritib o'tishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada aynan belgilangan iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar sirasiga to'xtaladigan ungaquyidagilar kiradi:

- tadbirkorlik va gonun bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat yuritish huquqi; mulk huquqi (36-modd);
- har bir shaxsning mehnat qilish sohasidagi huquq va erkinliklari(37modda):
1) mehnat huquqi; 2) adolatli sharoitlarda mehnat qilish huquqi; 3) ishsizlikdan himoyalani sh huquqi;4) yakka tartibda va jamoa tartibida mehnat nizolarini hal etish huquqi;
- dam olish huquqi;
- ijtimoiy ta'minot olish huquqi (39-modd);
- sog'liqni saqlash va malakali tibbiy yordam olish huquqi (40-modd);
- ta'lim olish huquqi (41-modd);
- intellektual ilmiy va texnik ijod erkinligi (42-modd);
- madaniy hayotda ishtirok etish va madaniyat yutuqlaridan foydalanish

huquqi (42-modd). Iqtisodiy va ijtimoiy huquq normalarining joriy etilishi jamiyat hayotining moddiy asoslarini mustahkamlab, insonlar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, ularning bu boradagi huquqlarini himoya qilishdan iboratdir. Ushbu keltirilgan qonunlarning barchasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, kodekslar, gonun osti hujjatlarda ,gonunlarda va bir nechta normativ huquqiy hujjatlarda o'z aksini topganligi,ularni tegishli tartibdagi qonunlar orqali qanchalik yaxshi taminlanganligini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har bir davlatning o'ziga yarasha rivojlanish yo'li mavjuddir. Ularning qanday shaklda rivojlanishida ham albatta farqlar bo'lishi tabiiy biz misol o'rnida yevropaning bir nechta rivojlangan davlatlari va bizning davlatimizning aynan ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari taminlanish masalalarini solishtirib berishga harakat qilamiz. Aynan shu qiyosiy tahlilni boshlashdan oldin men sizlarga aynan nima uchun shu masalaga to'xtalishni lozim deb topganimni izohlab bermoqchiman agar men huquqning hamma jihatlarini tahlil qilib beradigan bo'lsam hamma jihatini yoritib bera olmayman shuning uchun ham aynan bir sohasini tanlab izohlab berishga qaror qildim. Birinchi navbatda xalqaro hujjatlar orqali yoritishga harakat qildim. **Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning** 6-15 moddalarida mehnat qilish huquqi (6-modd)[9], adolatli va qulay mehnat sharoiti (7-modd), kasaba uyushmalari tuzish va unga kirish (8-modd), ijtimoiy ta'minot huquqi (9-modd), oilani, onalik, bolalik va o'smirlikni keng himoya qilish va yordam berish huquqi (10-modd), yetarli hayotiy darajaga ega bo'lish huquqi (11-modd), jismoniy va ruhiy sog'lomlikning eng yuqori darajasiga erishish va ma'lumot olish huquqi (12-13-moddalar), madaniy hayotda ishtirok etish huquqi (15-modd) va boshqa huquqlar gayd etilgan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-27 moddalarida insonning yashash huquqi himoyalani shi nazarda tutiladi. Bu moddalarda hech kim azob-uqubatga solinmasligi yoki zulmlik bilan, insonlikka isnod keltiruvchi bir tarzda yoki uning qadr-qimmatini xorlab muomala qilinmasligi yoki jazoga mustaqil etilmasligi kerak (7-modd); hech kim quilikda saqlani shi mumkin emas; qulchilik va qui savdosi, bular qanday shaklda bo'lmasin, taqiqlanadi; hech kim majburiy yoki shart bo'lgan mehnatga majbur gilinishi mumkin emas (8-modd); hech kim o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinishi yoki hibsda saqlani shi mumkin emas (9-modd); ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslarga insonlarcha muomalada bo'lish kerak

(10-modda); hech kim biror shartnoma majburiyatini bajarishga qodir bo'lmagan asosdagina ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas (11-modda); har bir odam davlat hududida erkin ko'chib yurish va yashash joyini erkin tanlash huquqiga egadir (12-modda).

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi. Toshkent, 2020.
2. Konstitutsiyaviy huquq. Ikramov Sh.T. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. 210-bet.
3. Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy (davlati) huquqi: o'quv qo'llanma/ Mas'ul muharrir: dotsent D.Q.Axmedov. - T.: TDYI. 146-bet
4. Malta respublikasi konstitutsiyasi.
5. Constitution of Malta arrangement of articles 35, 39-betlar
6. Azerbaijan's Constitution of 1995 with Amendments through 2016 9, 11, 22 betlardagi malumotlarga asoslandi.
7. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. - Toshkent: Adolat, 2021.169-bet
8. 1995-yil 31-avgustdagi 126-I-sonli *1966-yil 16-dekabrdagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga qo'shilish haqida"gi qaroriga asosan ushbu faktga qo 'shilgan.